



## SARSABIL, SPARJA (ASPARAGUS) O'SIMLIGINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

---

**Raimova Sitora Erali qizi**

Samarqand Agroinnovatsiyalar va Tadqiqotlar Instituti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sarsabil (sparja) o'simligining kelib chiqishi va tarqalishi hamda foydalanilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda o'simlikni yetishtirish, ko'paytirish sifatli va mul hosil olish haqida ma'lumotlar birilgan.

**Kalit so'zlar;** sparja (sarsabil), sabzavot, lolaguldoshlar, kaltabarg, ko'p yillik sarsabil novdalari, hosildorlik

### ANNOTATION

This article contains information about the origin, distribution, and use of the sarsabil (asparagus) plant. It also includes information about the cultivation of the plant, its reproduction, quality and yield.

**Key words:** asparagus (sarsabil), vegetables, tulips, sardines, many annual sarsabil branches, productivity

### KIRISH

Sarsabil, sparja (Asparagus) — lolaguldoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi; sabzavot va manzarali ekin. Yevropa, Osiyo va Afrikada 150 turi bor. O'zbekistonda 2 turi yovvoyi holda uchraydi. Kaltabarg S. (A. brachyphyllus Turez.), fors (A. persicus Baker.) ko'p yillik, chirmashib o'sadigan o't. Ikkala turi ham boshqa belgilari bilan bir-biriga o'xshash, bo'yi 50—150 sm. Barglari mayda, barg qo'ltig'ida ninasimon ko'rinishda. Shakli o'zgargan shoxchalar — kladodiylar hosil qiladi. Mevasi rezavor, rangi qizil. May oyida gullab, iyunda meva beradi. To'qaylarda o'sadi. Dorivor S. (A. officinalis) Yevropaning markaziy va jan. qismida, Kavkazorti va Shim. Kavkazda keng tarkalgan. Sabzavot sifatida ekiladi; uning yosh novdalari ovqatga ishlatiladi. Tarkibida 2% oqsil, 2,4% uglevodlar (klechatkadan tashqari), vitaminlar B, B2, PP, provitamin A mavjud. S.-dan asparagin olinadi. Hosildorligi 30—35 s/ga. S. ekilgan maydonlardan 10—15 yil hosil olinadi. S. asparagus nomi bilan manzarali o'simlik sifatida ham o'stiriladi. Dorivor xomashyo ildiz va yosh kurtaklar, mevalardir. Ildiz va ildizlarda asparagin va saponin, kurtaklarda—asparagin, karotin va B, C vitaminlari, yog'lar va shakar mevalarda uchraydi. Eng qizig'i, ko'p



mamlakatlarda sarsabil dorivor o‘simliklar sirasiga kiradi. U arterial qon bosimini pasaytirib, yurak qisqaruvi ritmini sekinlashtiradi, periferik tomirlarni kengaytiradi va charchoqni oladi. Qolaversa, sarsabil organizmdan zararli moddalarni chiqarib tashlashga yordamlashadi, shuning uchun u buyrak, yurak, bod, podagra va boshqa kasalliklarda tavsiya qilinadi. Sarsabil vitamin va minerallarga boy, ko‘p miqdorda foliy kislotasiga ega. U immunitetni mustahkamlash va ko‘rish qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Sarsabil qadimgi Misrda xudolar ozuqasi, deb hisoblangan bo‘lsa, Fransiyada “sabzavotlar qirol” deb atalgan. Uni iste‘mol qilish borasida Germaniya yetakchi hisoblanadi. Darvoqe, bu yerda oq sarsabilni iste‘mol qilish niazal ko‘rishadi, boshqa ko‘p mamlakatlarda esa asosan, sarsabilning yashil, shuningdek, kam uchraydigan binafsharang navi ommalashgan. Sarsabil (sparja) foydali va juda xushta‘m mahsulot hisoblanadi. Ushbu sabzavotdan taom tayyorlash bo‘yicha ko‘plab reseptlarni topish mumkin, yangi sarsabil (sparja) novdalari uchini xomligicha iste‘mol qilsa bo‘ladi. Sarsabil (sparja) dan tayyorlangan taomlar o‘ta tansiq sanaladi. Sarsabilni, shuningdek, asosiy taom sifatida ham tanovul qilish mumkin. O‘simlik yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, qonni tozalovchi va tinchlantiruvchi ta‘sirga ega. Viloyatda eksport bop mahsulotlar hajmini ko‘paytirish uchun Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tizimida sabzavot, poliz, moyli va dukkakli ekinlar yuqori avlodli urug‘liklarini yetishtirishga ixtisoslashgan elita urug‘chilik xo‘jaliklarini tashkil etishga Jomboy, Bulung‘ur, Toyloq va Samarqand tumanlaridan 50 gektardan jami 200 gektar yer maydoni ajratiladi. Sabzavot, poliz, moyli va dukkakli ekinlarning yuqori avlodli urug‘liklarini yetishtirishni rag‘batlantirish tizimi yaratiladi. Joriy yilda “Uzbat-Samfrut” qo‘shma korxonasi tomonidan Samarqand, Toyloq, Jomboy va Urgut tumanlarida “sparja” ekini tajriba tariqasida fermer xo‘jaliklari bilan klaster usulida yetishtiriladi, qayta ishlanib, eksport qilinadi.

**Xulosalar.** Sarsabil (sparja) foydali va juda xushta‘m mahsulot hisoblanadi. Ushbu sabzavotdan taom tayyorlash bo‘yicha ko‘plab reseptlarni topish mumkin, yangi sarsabil (sparja) novdalari uchini xomligicha istemol qilsa bo‘ladi. Sarsabil (sparja) dan tayyorlangan taomlar o‘ta tansiq sanaladi. Sarsabilni, shuningdek, asosiy taom sifatida ham tanovul qilish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kanno, A., & Yokoyama, J. (2011). Asparagus. In Wild crop relatives: genomic and breeding resources: vegetables (pp. 23-42). Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg.



2. Tursunqulovna, H. S. (2023, April). SARSABIL, SPARJA (ASPARANGUS) O'SIMLIGINING BIOLOGIK O'RGANILISHI. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 5, pp. 70-77).

3. Мустафакулов, М., Маматкулова, И., Аликулов, С., & Анваров, Б. (2023). Dorivor sarsabil (asparagus officinalis L.) o 'simligini shifobaxsh xususiyatlari va yetishtirish texnologiyalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 364-367.

4. Бердибаева, Д., & Раимова, Д. (2023). Dorivor sarsabil (asparagus officinalis L.) o 'simligini shifobaxsh xususiyatlari va xalq tabobatida ishlatilishi. Взаимодействие науки и общества—путь к инновационному развитию, 1(1), 8-10.

5. Hasanova, S. T., & Turobova, X. N. (2023). SPARJA (SARSABIL) QIMMATBAHO SABZAVOT EKINI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 763-766.

6. Farxodovich, Y. A., Zokirovna, I. M., & Ziyedullayevich, S. X. (2024). YUMSHOQ BUG'DOY JAHON KOLLEKSIYASI NAV NAMUNALARINI QISHGA CHIDAMLILIGI. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(3), 15-22.

7. Norboy o'g'li, A. S., Farxodovich, Y. A., & Zokirovna, I. M. (2024). YUMSHOQ BUG 'DOY DURAGAYLARNING MIQDORIY BELGI VA XUSUSIYATLARINI, IRSIYLANISH DARAJASI. Лучшие интеллектуальные исследования, 16(1), 86-91.

8. G'Aybullayev, G. U. S., Xayitov, A. B., & Yalgashev, A. F. (2023). KUZGI YUMSHOQ BUG'DOYNING QISHKI SOVUQLARDAN JAROHATLANISHI BA UNI ANIQLASH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 867-871.